

ZAMONAVIY TA'LIMDA METOKOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISH

Shobekova Nigora Mamurovna

NamDPI mustaqil tadqiqotchisi,

Qo'qon shaxridagi 1-maktab o'qituvchisi

E-mail: nigorashobekova234@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqola zamonaviy ta'lim jarayonida metodik kompetentlikni rivojlantirishning ahamiyati, asosiy tamoyillari va usullari haqida ilmiy tahlil qiladi. Metodik kompetentlik o'qituvchilarning pedagogik faoliyatini samarali tashkil etish, innovatsion texnologiyalarni qo'llash hamda o'quvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyatini shakllantirishda muhim omil sifatida ko'riladi. Maqolada zamonaviy ta'limda metodik kompetentlikni oshirish strategiyalari, malaka oshirishdagi yangi yo'nalishlar va ta'lim sifatini yaxshilashga qaratilgan yondashuvlar taqdim etilgan.

Kalit so'zlar: zamonaviy ta'lim, metodik kompetentlik, pedagogik malaka, ta'lim jarayoni, innovatsion texnologiyalar, o'qituvchi faoliyati, malaka oshirish, ta'lim sifatini yaxshilash.

DEVELOPMENT OF METOCOPENCETENCY IN MODERN EDUCATION

Abstract: This article provides a scientific analysis of the importance, basic principles and methods of developing methodological competence in the modern educational process. Methodological competence is considered an important factor in the effective organization of teachers' pedagogical activities, the use of innovative technologies and the formation of students' independent thinking. The article presents strategies for improving methodological competence in modern education, new directions in professional development and approaches to improving the quality of education.

Keywords: modern education, methodological competence, pedagogical competence, educational process, innovative technologies, teacher activity, professional development, improving the quality of education

РАЗВИТИЕ МЕТОКОПЕНТЕНЦИИ В СОВРЕМЕННОМ ОБРАЗОВАНИИ

Аннотация: В статье представлен научный анализ значения, основных принципов и методов развития методической компетентности в современном образовательном процессе. Методическая компетентность рассматривается как важный фактор эффективной организации педагогической деятельности учителя, использования инновационных технологий и формирования самостоятельного мышления студентов. В статье представлены стратегии повышения методической компетентности в современном образовании, новые направления профессионального развития и подходы к повышению качества образования.

Ключевые слова: современное образование, методическая компетентность, педагогическая компетентность, образовательный процесс, инновационные технологии, деятельность учителя, профессиональное развитие, повышение качества образования.

KIRISH

Bugungi kunda ta'lim tizimida yuz berayotgan o'zgarishlar va innovatsiyalar pedagoglarning professional malakasini doimiy ravishda oshirishni taqozo qilmoqda. Ayniqsa, metodik kompetentlik zamonaviy ta'limda o'qituvchilarning asosiy kasbiy xususiyatlaridan biri sifatida ajralib turadi. Chunki bu kompetentlik nafaqat dars jarayonini samarali tashkil etishga, balki o'quvchilarning mustaqil fikrlashini shakllantirishga xizmat qiladi. Shu bois, zamonaviy ta'lim muhitida metodik kompetentlikni rivojlantirish muhim ilmiy-amaliy vazifa hisoblanadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Metodik kompetentlik kontseptsiyasi pedagogika va ta'lim nazariyalarida keng tadqiq qilingan. Ba'zi pedagog olimlar metodik kompetentlikni o'qituvchining fan bo'yicha chuqur bilimlari, pedagogik mahorati va uslublarni qo'llash qobiliyatlari sifatida ta'riflaydi. So'nggi yillardagi ta'lim texnologiyalari rivojlanishi, masalan, interaktiv usullar, axborot-kommunikatsiya vositalarining joriy etilishi, metodik kompetentlikning tarkibiy qismlarini kengaytirdi. Shu bilan birga, pedagogik jarayonni individualizatsiyalash va o'quvchilarning yosh xususiyatlarini inobatga olish bugungi kunda metodik kompetentlikni yanada murakkab va ko'p qirrali qiladi. O'zbekiston ta'lim strategiyasida ham pedagoglarning metodik kompetentligini mustahkamlash muhim yo'nalishlar qatoriga kiritilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu maqolada zamonaviy ta'limda metodik kompetentlikni rivojlantirish masalalari nazariy va amaliy jihatdan o'rganildi. Tadqiqot uchun sifatli va miqdoriy tahlil usullari qo'llanildi. Adabiyotlar tahlili orqali metodik kompetentlik tushunchasi va uning komponentlari aniqlab olindi. Shuningdek, o'qituvchilar orasida so'rovnoma o'tkazilib, ularning metodik yondashuvlari, malaka oshirishga bo'lgan ehtiyoji va amaliy tajribasi o'rganildi. Olingan ma'lumotlar statistik usullar yordamida tahlil qilindi. Tadqiqot jarayonida pedagoglarning zamonaviy metod va

texnologiyalarni qo'llash darajasi va ularni rivojlantirish yo'llari aniqlashga harakat qilindi. Natijalar ta'lim jarayonini takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqishda asos bo'ldi.

TAHLILLAR VA NATIJALAR

Zamonaviy pedagog kadrlar tayyorlash tizimida metakompetentlik – o'qituvchining o'z bilimlarini boshqarish, taxlil qilish va yangi vaziyatlarda qo'llash qobiliyati – asosiy kasbiy sifatlardan biri sifatida qaralmoqda. Metokompetentlik darajasini baxolash ta'lim jarayoni samaradorligini aniqlashda muxim ahamiyat kasb etadi. Hozirgi paytda metodik kompetentlikka erishish uchun innovatsion yondashuv muhim ahamiyat kasb etadi. [1] Shuning uchun baxolashning ilmiy asoslangan mezonlari va aniq indikatorlari tizimini ishlab chikish dolzarb vazifa xisoblanadi.

Metokompetentlikni baxolash pedagogik faoliyatdagi refleksiv, kognitiv va innovatsion kunikmalarning rivojlanish darajasini aniqlashga qaratilgan bo'lishi lozim. Olimlar ta'kidlashicha, kompetentlikni baxolash jarayonida faqat bilim emas, balki shaxsning mustaqil qaror qabul qilish va o'z faoliyatini taxlil qilish qobilyati xam muxim mezon xisoblanadi.

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida metokompetentlikni baxolash uchun quyidagi mezonlar taklif etiladi:

- kognitiv mezon – pedagogik bilimlarni anglash, taxlil qilish va umumlashtirish darajasi;
- refleksiv mezon – o'z faoliyatini taxlil qilish, xatolardan xulosa chiqarish;
- innovatsion mezon – Yangi texnologiyalar va metodlarni joriy etish kobilyati;
- kommunikativ mezon – Xamkorlik va muloqotda metatanqidiy fikrlash ko'rsatkichlari.

Metakompetentlikni baxolash uchun ishlab chikilgan indikatorlar talabalarning tayyorgarlik darajasini aniklash imkonini beradi. Yuqori darajada talabalar bilimni mustaqil taxlil qila oladi, yangicha yechimlar taklif etadi va innovatsion yondashuv ko'rsatadi. O'rta darajada esa, bilimlarni to'g'ri qo'llaydi, lekin muammoli vaziyatlarda ijodiy yondashuv kamligi bilan farqlanadi. Past daraja bilimni reproduktiv tarzda qo'llaydi, refleksiya ko'nikmalari sust rivojlanadi. Bu

indikatorlar orqali talabalarning metakompetentlik darajasini diagnostika qilish, guruxdagi umumiy rivojlanish dinamikasini kuzatish va individual ta'lim trayektoriyasini shakllantirish mumkin.

Toshkent davlat pedagogika universitetda 2024-2025 o'quv yilida 58 nafar talabalar ishtirokida o'tkazilgan tajribada ishlab chikilgan mezon va indikatorlar sinovdan o'tkazildi. Natijada talabalarning metakompetentlik dajasi 25-30% ga sgani kuzatildi. Bu baxolash tizimi samaradorligini tasdiqladi.

Kompetensiyaga asoslangan ta'lim ba'zan ta'limda an'anaviy baholash usullariga alternativa sifatida taqdim etiladi. [2] Zamonaviy ta'lim jarayonida metodik kompetentlikning o'rni juda muhim bo'lib, u o'qituvchining nafaqat nazariy bilimlarga, balki amaliy ko'nikmalarga ham ega bo'lishini ta'minlaydi. Ta'lim tizimidagi yangiliklar, texnologik taraqqiyot va jamiyat talablarining o'zgarishi o'qituvchilardan o'z ishiga yangicha yondoshuvni talab qiladi. Shu nuqtai nazardan, metodik kompetentlikni rivojlantirish nafaqat ta'lim sifatini oshirish, balki o'quvchilarning bilim olish jarayonini samaraliroq qilish uchun zarurdir.

Metodik kompetentlik – bu pedagogning o'quv jarayonini tashkil etish, o'qitish usullari va texnologiyalarini to'g'ri tanlash, amalda qo'llash va dars jarayonini boshqarish qobiliyati. U o'qituvchining fan bo'yicha chuqur bilimlari, pedagogik texnologiyalarni o'zlashtirishi, o'quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlarini hisobga olishga asoslanadi. Tadqiqotchi Devid Kolbning tushuntirishiga ko'ra, "kompetensiyaga asoslangan o'rganish ko'pincha o'quvchiga yo'naltirilgan. [3] Bu kompetentlik o'qituvchining o'z ustida doimiy ishlashi, yangi metod va texnologiyalarni o'zlashtirishi bilan mustahkamlanadi.

Bugungi kunda ta'lim jarayoni shunchaki bilim berishdan ko'ra, o'quvchining ijodiy fikrlashini oshirish, muammolarni hal eta olish qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan. Shu bois, o'qituvchi o'z metodikasini doimiy takomillashtirishi va yangi pedagogik yondashuvlarni hayotga joriy etishi zarur. Masalan, interaktiv ta'lim metodlari, loyiha asosida o'qitish, ijtimoiy va axborot texnologiyalaridan foydalanish – bularning barchasi metodik kompetentlik sayqalini oshiradi.

Metodik kompetentlikni rivojlantirishning bir qator yo'llari mavjud. O'qituvchilar uchun tashkil etiladigan seminar, trening va ilmiy-amaliy

konferensiyalar metodik kompetentlikni rivojlantirish uchun muhim imkoniyatdir. Bu tadbirlar zamonaviy metodologik yondashuvlar, o'quv jarayonini tashkil qilishdagi yangiliklar bilan tanishtiradi. Boshlang'ich ta'limda pedagogning raqamli kompetensiyani o'zlashtirishi ayni yangicha innovatsiyalardan xisoblanadi.

G. Xasanovaga ko'ra "Bu kompetentlik bolalarga interfaol, vizual va o'yin asosidagi o'quv jarayonini tashkil etish imkonini beradi." [4]

Multimedia vositalari, masofaviy ta'lim platformalari, interaktiv ta'lim dasturlari pedagogning metodik bilimlarini kengaytiradi, o'quv jarayonini yanada samaraliroq qiladi. Hamkasblar bilan tajriba almashish, pedagogik hamjamiyatlar faoliyatida ishtirok etish. Bu o'qituvchilarga yangi yondashuvlarni sinovdan o'tkazish va o'z ish tajribasini boyitish imkonini beradi. Har bir o'quvchining qobiliyati va ehtiyojlariga mos keladigan darslarni tashkil qilish metodik kompetentlikni oshirishda muhim hisoblanadi. O'qituvchi o'z metodik repertuarini shu nuqtai nazardan boyitishi lozim.

Metodik kompetentligi yuqori bo'lgan o'qituvchilar darsni samarali tashkil etib, o'quvchilarni faollashtirish va ularning bilim sifatini oshirishga erishadilar. Natijada o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalari yanada chuqurroq, mustahkamroq bo'ladi. Shu bilan birga, bunday o'qituvchilar yosh avlodni zamonaviy ijtimoiy hayotga muvaffaqiyatli moslashishiga yordam beradi.

Zamonaviy ta'limda metodik kompetentlikni rivojlantirish – bu doimiy, tizimli va maqsadli jarayon bo'lib, u o'qituvchilarning professional darajasini oshirishga, ta'lim sifatini yaxshilashga xizmat qiladi. Zamonaviy pedagogik metodlar va texnologiyalarni o'zlashtirish, malaka oshirish, hamkasblar bilan tajriba almashish va har bir o'quvchining ehtiyojlarini inobatga olgan holda ta'lim jarayonini tashkil etish – bularning barchasi metodik kompetentlikni mustahkamlash yo'llaridir. Bu jarayon zamonaviy ta'limning eng muhim elementi sifatida ta'lim tizimining samaradorligini oshirishda davom etmoqda.

Zamonaviy ta'lim jarayonida metodik kompetentlik o'qituvchining samarali pedagogik faoliyat yuritishida asosiy omil hisoblanadi. Metodik kompetentlik – bu ta'limning maqsad va vazifalarini amaliyotga to'g'ri tatbiq etish, o'quv jarayonining samaradorligini oshirish uchun zarur bo'lgan nazariy bilimlar, amaliy ko'nikmalar

hamda malakalarni o'z ichiga olgan kompleks tushuncha. Bugungi kunda ta'lim tizimining murakkablashuvi, texnologiyalar rivojlanishi va yosh avlodning o'ziga xos xususiyatlari metodik yondashuvlarni qayta ko'rib chiqishni, yangicha pedagogik strategiyalarni joriy etishni talab qiladi.

Metodik kompetentlikni rivojlantirishning birinchi asosiy yo'nalishi o'qituvchilarning zamonaviy pedagogik va psixologik bilimlarga ega bo'lishi, ular asosida o'quv faoliyatini samarali tashkil eta olishi bo'ladi. Bu esa o'qituvchilarning individual xususiyatlari, qiziqishlari va qobiliyatlariga mos keladigan dars uslublarini tanlash imkonini beradi. Shuningdek, interfaol, loyiha asosida ishlash, innovatsion texnologiyalarni qo'llash kabi metodlarni uyg'unlashtirish orqali o'qituvchi kompetentligini boyitadi.

Ikkinchi muhim jihat – doimiy professional rivojlanish va o'z ustida ishlashdir. Zamonaviy sharoitda o'qituvchi faqatgina o'z fanini bilishi emas, balki ta'lim jarayonida yangi yondashuvlarni qabul qilib, innovatsiyalarga moslashuvchan bo'lishi zarur. Metodik kompetentlikni oshirish maqsadida malaka oshirish kurslari, seminar va treninglarda qatnashish, pedagogik hamjamiyatlarda faol bo'lish muhim ahamiyatga ega.

Shuningdek, texnologik ta'lim vositalaridan samarali foydalanish metodik kompetentlikni yangilashda katta ahamiyatga ega. Onlayn platformalar, interaktiv darsliklar, multimedia resurslari o'quv jarayonini yanada qiziqarli va interaktiv qilishi bilan birga, o'qituvchilarga ham yangi o'quv metodlarini joriy etish imkonini beradi.

Zamonaviy ta'limda metodik kompetentlikni rivojlantirish o'qituvchining kasbiy muvaffaqiyatini belgilovchi asosiy omil bo'lib, ta'lim sifatining barqarorligini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Bu esa pedagogik jarayonni shaxsga yo'naltirilgan, innovatsion va samarali tashkil etishga xizmat qiladi. Shunday qilib, metodik kompetentlikni oshirish jarayoni doimiy bo'lib, u ta'lim sohasidagi zamonaviy talablar va o'zgarishlarga moslashishni taqozo etadi.

XULOSA

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida metakompetentlik baxolash tizimi ularning kasbiy rivojlanish darajasini aniqlash, ta'lim jarayonini individuallashtirish

va pedagogik tayyorgarlik samadorligini oshirish imkonini beradi. Taklif etilgan mezonlar va indikatorlar asosida ishlab chiqilgan baxolash modeli amaliy joriy etishga tayyor bo'lib, uning asosida metakompetentlikni rivojlantiruvchi ta'lim muxitini yaratish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'sarov Shirinboy Abdug'aniyevich. Metodik kompetentlik bo'lajak o'qituvchining kasbiy o'sishining asosi sifatida. Fan, ta'lim va amaliyot integratsiyasi jurnali. Jild:04 | Nashr:05 | 5- S e n t a b r, 2023. 52-bet.
2. ["What Is Competency-Based Learning?"](#). TeachThought. [Murojaat qilingan sana: 11.01.2026]
3. Kolb, David A. (2014). *Experiential Learning: Experience as the Source of Learning and Development, Second Edition*. Upper Saddle, NJ: FT Press. p. 17.
4. G.Xasanova, M.Kamolova. Tarbiyachilarning raqamli kompetentligini rivojlantirish – zamonaviy ta'lim talabi sifatida. "Pedagogik mahorat" ilmiy-nazariy va metodik jurnal. 2025, № 11 164-bet.